

NEYROPSIXOLINGVISTIKA: RUHIY HOLAT VA ASAB TIZIMI

Bobokjalonov Ramazon Rajabovich

filologiya fanlari doktori, BuxDU professori

Orifboyeva Ziyoda Olim qizi

BuxDU iqtitorli talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning yangi sohalaridan biri neyrolingvistika, unda ruhiy holatning nutqiy konfiguratsiyasi va asab tizimining nutq faoliyatidagi o'rni haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Neyropsixolinguistik Yangi O'zbekistonda inson qadrini ulug'lashda juda muhim sanaladi.

Tayanch so'zlar: neyrolingvistika, ruhiy holat, nutqiy konfiguratsiya, asab tizimi, nutq faoliyati, psixologiya, shaxs ruhiyati, psixik jarayon.

Jahon tilshunosligi arenasida neyropsixolinguistikaning o'ziga xos o'rni bor. Bu fan sohasi yangi bo'lsa-da, biroq uning nazariy asoslarini qadimdan izlab topish mumkin bo'ladi. Ko'pchilik Ferdinand de Sossyurning "Umumiy tilshunoslik kursi"da til aloqa vositasi, fikrlarni ifoda etish va rasmiylashtirish vositasi ekanligini, uning neyropsixologiya bilan aloqadorligini ta'kidlaydi. Sossyurning fikricha: "Mavjud tillarning shakllarini o'rganish, til belgilarni qo'llash ichki tilshunoslik bilan birgalikda **tashqi tilshunoslikka** ham bog'liq [7]." Sossyur "til" va "nutq" tushunchalarini ajrata turib, ularning bir-biri bilan o'zaro ta'sirini asosladi. Uningcha, nutq deganda axborotni til orqali uzatish jarayoni tushuniladi, til esa tarixan o'rnatilgan belgilarni tizimidir. Nutq — tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shaklidir. Nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi. U so'zlovchi ongida bilishga yordam beradigan turli xil masalalarini muhokama qilish va hal etishga qaratiladi. Nutq aloqa-aralashuv vazifasidan tashqari boshqa vazifalar, chunonchi, poetik vazifa ham bajaradi. O'qish ham nutqning alohida ko'rinishidir.

So'zning xosiyati qanchalik e'tiborli bo'lsa, shunga muvofiq nutqning mohiyati ham muhimdir. Nutq qator xususiyatlar bilan birga nutqiy vositalarga ham ega. Bu holat uning, nutq madaniyatining har ikkala ko'rinishiga, og'zaki va yozma nutqqa baravar taalluqlidir.

Kishilik jamiyati paydo bo'libdiki, so'z va nutqdan foydalanish, uning imkoniyatlari doirasida fikr yetkazish va qabul qilishning turli usullari shakllangan. Har qanday so'zning xosiyati nutqning mohiyati bilan aloqadorgina emas, balki mantiqiy tafakkur mezonini hamdir. Nutqiy mahoratning ikki omili bor. Biri nutq xususiyatlarini bilish bo'lsa, ikkinchisi nutq texnikasini egallashdir. Nutqning to'g'riliqi, aniqligi, mantiqiyligi, sofligi, boyligi, ifodaviyliqi, ta'sirliligi, jo'yaliligi, maqsadga muvofiqligi uning xususiyatlarini tashkil etsa, og'zaki nutqdagi ovoz, diktsiya, pauza, urg'u, ohang, intonatsiya, yozma nutqdagi tinish belgilari silsilasi nutqiy texnikadir. Shular bilan bir qatorda nutqning neyropsixolinguistik ahamiyati ham ruhiy holat va asab tizimida yetarli darajada sezilib turadi [2 ; 3].

Tibbiyot tilida har qanday ruhiy toliqish yoki jismoniy zarba olgan shaxs, nisbatan bemor deb qaraladi. Bemorni yaxshi parvarish qilishdan tashqari uning psixologik va jismoniy sog'ligiga

ham yaxshi e'tibor berish kerak bo'ladi. Bemorni sog'lomlashtirish maskanlarida shaxsning ruhiy holatlarini va xususiyatlarini diagnostik tarzda uctomonlama amalga oshiriladi :

Psixologiya nuqtai nazaridan bemor bolani parvarish kilishda uning yoshiga, tasavvur va qiziqishlariga muhim e'tibor qaratiladi. Turli sabablar bilan tez-tez kasal bo'lib turadigan bolalarda ruhiy va jismoniy rivojlanishdan orqada qolish ko'zga tashlanadi. Ruhiy holat, eng avvalo, irsiy jihatdan tashqarida inson omilining o'zi bilan – bog'liq. Ruhiy holatda xarakter, fe'l-atvor, yurish-turish, o'zini idora qilish, o'ylash-fikrlash, kuzatish va mulohaza yuritish kabi psixologik xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ruhiy hodisalarning butun majmui, odatda, psixika degan so'z bilan ataladi. Psixika, bu – real voqelikning bosh miyada aks etishidir.

Umumiy psixologiya darsliklarida insonlardagi psixika uch xil ruhiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi: *shaxsning ruhiy xususiyatlari, psixik holatlar va psixik jarayonlar*.

1. Shaxsning ruhiy xususiyatlari: temperamenti, xarakteri, kobiliyati va psixik jarayonlarning barqaror xususiyatlari, shuningdek, mayli, e'tiqodi, bilimi, ko'nikmalari, malakasi hamda odatlaridan iborat.

2. Psixik holatlar: tetiklik yoki ma'yuslik, ishchanlik yoki horg'inlik, g'am-anduh va shodlik, muloyimlik va serzardalik, hushyorlik va parishonxotirlik. SHuningdek, stress, yaxshi/yomon kayfiyat, h-zolar kiradi.

3. Psixik jarayonlar: elementar psixik hodisalar; ruhiy faoliyatning murakkabroq turiga kiruvchi oddiy, zahar sochish, do'q qilish, yig'lab yuborish, kulish, luqma tashlash va h-zo. Ular juda kiska vaqt davom etadi. Neyropsixolingvistika ana shu nuqtada, lingvistik va pedagogik maslahat berishga yordamga keladi [1 ; 2 ; 3 ; 4].



Psixoglarning ta'kidlashlaricha, asab tizimi nuqtalariga ta'sir qiluvchi omillar – ***ta'sir o'tkazuvchi, bo'yin so'ndiruvchi, qondiruvchi va qo'zgatuvchi*** nuqtalardan iborat. Til o'rgatish jarayonida pedagogik omil bilan bir qatorda psixologik omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik muammolarning so'nggi natijalari, Charlz Osgud va Tomas Albertning "semantik differentsiatsiya" nazariyasi bilan bog'liq [Charles Edjurton Osgud, Tomas Albert Cubuok, 1954]. Bu nazariya Sankt-Peterburg davlat universiteti professori, filologiya va biologiya fanlari doktori, Tatyana Chernigovskayaning taddiqot ishlarida ko'zga tashlanadi. U psixolingvistika haqida shunday baho beradi: "Bu tilshunoslik va nevrologiyaning birlashishi hisoblanadi. Sof ilmdan tashqari, bu fan odamlarni davolash uchun ham zarurdir. Biz gaplashganda va tinglaganda miyada nima sodir bo'lishini o'rganamiz. Insonning nutqi bilan nima bog'liqligini tushunish uchun, eng avvalo, til va tilshunoslik fani haqida tasavvurga ega bo'lishimiz – kerak. Bizning bilimlarimiz diagnostika, rehabilitatsiya, nutqning turli funktsiyalarini tiklash uchun zarurdir. ***Ba'zan odamlar o'z ona tillarini qayta o'rganishga majbur bo'ladilar***. Dunyoda disgrafiya va disleksiya bilan og'rigan insonlar soni ortib bormoqda [8].". Uning fikricha:



“Одам о’з онгини бoshqarishga harakat qilishi – mumkin, ammo miya faoliyatining fiziologik va irsiy xususiyatlarini nazorat qila olmaydi. Agar odamlarning ongida psixologik nuqson mavjud bo’lsa, unda uni tuzatish yoki davolash – mumkin. Neyrolingvistika nutq faoliyati mexanizmlari jarayonlarini, til, tafakkur va inson ongingin o’zaro bog’liqligini, inson nutqini yaratishga yordam beradi [8].”

« Neyrotishunoslar miya fiziologiyasi to’g’risidagi ma’lumotlarga asoslanib, tilning tuzilishi va tashkil etilishi haqidagi nazariyalarni ilgari surishlari, ya`ni “nevrologik tuzilmalarning va tilning tuzilishi haqida umumiylar xulosalar chiqarishlari – mumkin [8] » “Neyrolingvistik tadqiqotlar tilshunoslar va psixolingvistlar tomonidan ilgari surilgan nazariyalar yordamida olib boriladi. Neyrotishunoslar miya fiziologiyasi to’g’risidagi ma’lumotlarga asoslanib, tilning tuzilishi va tashkil etilishi haqidagi nazariyalarni ilgari surishlari, ya`ni “nevrologik tuzilmalarning tuzilishi va tilning tuzilishi haqida umumiylar xulosalar chiqarishlari – mumkin [1 ; 2] ”.

O’z davrida tilshunos olimlar L.S.Vigotskiy, F. de Sossyur, I.A.Boduen de Kurtenay, N.Xomskiylar ham fikrlash va nutqning o’zaro ta’siri, “inson ongida nutq aloqasining shakllanish xususiyatlarini” e’tirof etgan edilar. L.S.Vigotskiyning fikriga ko’ra, “fikr mavhum hodisa emas, balki aqliy jihatdan eng murakkab shakllarning mahsulidir [1 ; 2 ; 5] ”.

Bu neyropsixolingvistik holat (*jest, mimika, tana harakati, imo-ishoralar*)da kommunikativ nutqiy hosilalar til va nutq elementi sifatida yuzaga chiqadi, shuningdek, tabiiy tilning birlamchi elementi kontekstual ma’noga ega bo’lishi talab etiladi. Muayyan sharoitda kommunikativ nutqiy hosilalarning intensiv ma`nolari *jest, mimika, tana harakati, imo-ishoralar* yordamida nutq kombinatsiyasi orqali uzatiladi. Imo-ishoralar til birliklari singari aksariyat hollarda ramziy belgilarga aylanadi va ularning kombinatsiyalari orqali «*tana tili*» ning leksikonini nutq aktlari kabi semiotik tarzda boshqalarga osonroq yetkazadi.

“Asab tizimini tinchlaniruvchi, unga ta’sir o’tkazuvchi, asabni o’ziga bo’yin so’ndiruvchi, ruhiyatni tiklash uchun ruhiy saxovat beruvchi, ya`ni asabni qondiruvchi va uni qo’zgatuvchi masalalarni o’rganish faqat tibbiyoting ishi emas. Bu nuqtalarda ham neyropsixolingvistikating ahamiyati juda – katta. Asab bilan bog’liq turli-tuman va og’ir va yengil xastaliklar – mavjud. Ularning har bir turi uchun leksika va nutqiy birlik ishlataladi va tanlanadi. Chunonichi, fatalist kasalidan xabardor hakimdan tashqari bemor bilan bevosita muloqot qilib boradigan pedagog va psixolog ham xatoga yo’l qo’ymasligi kerak [6].”

Xulosa qilib aytganda, neyropsixolingvistika uch sohaning inson kamoloti nuqtasida to’qnashuvidir. Psixologlar ruhiy sog’likni, tibbiyot xodimlari tana a’zolari sog’ligini shaxs kamoloti uchun xizmat qildirsalar, lingvistlar yangi konstruktiv nutq dasturini ishlab chiqishlari zarur bo’ladi. Tibbiy psixologiyada so’z va gapning o’rniga muhim ahamiyat beriladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Bobokalonov R. R., Hayatova N. I., Bobokalonov P. R. Психонейролингвистические и лингвокультуролингвистические свойства невербальных средств общения у детей с ограниченными возможностями. III. Уэлиханов атындағы КУ хабаршысы ISSN 2707-9910 / ISSN 2788-7979. Филология сериясы. № 3, 2021, Kazakhstan 33-39 б.
2. Бобокалонов Р.Р. Нутқий ҳосила, семиотик белги, дискурс ва нейропсихолингвистик ҳолат. Монография, GlobeEdit, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023234 с. ISBN 978-620-0-64729-0.
3. Бобокалонов Р.Р. Нейропсихолингвистика: языковая личность и харизматический человек (Теория, практика и методика). Монография, LAMBERT Academic Publishing,



Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 230 c. ISBN 978-620-6-15214-9

4. Бобокалонов Р.Р. Неразрывная связь семиотики и нейропсихолингвистики. Монография, Lambert Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 156 с. ISBN: 978-620-6-16018-2.
5. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М., 1999. – С. 352.
6. Sayfullayeva R.R., Bobokalonov R.R. Neyropsixolinguistik: lingvistik shaxs va xarizmali inson. Globedit, Kshinyov, 2023
7. Соссюр Ф. де. Заметки по общей лингвистике. — М.: Прогресс, 1990; 2001
8. Черниговская Т. В. Язык, мышление, мозг: основные проблемы нейролингвистики // Труды отделения историкофилологических наук РАН. М., 2004. Вып. 2.